


81.633.1
0-54

O'QISH KITOBİ

1



O'QISH KITOBI

**Umumiy o'rta ta'lif mакtablarining
1-sinfi uchun darslik**

Qayta ishlangan beshinchи nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tomonidan tasdiqlangan*



Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

923407

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2009

M u a l l i f - t u z u v c h i l a r:

T. G'AFFOROVA, E. SHODMONOV, G. ESHTURDIYEVA

Mas'ul muharrir p.f.d., Nizomiy nomidagi TDPU
professori **S. Matchonov**

T a q r i z ch i l a r:

Sh. Yo'Idosheva, Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, p.f.n.

N. Ahmedova, RTM boshlang'ich ta'lif bo'limi boshlig'i

M. Azizova, Toshkent shahridagi 298-maktab o'qituvchisi

Davlat budjet mablag'lari hisobidan chop etildi. Bepul.

O'qish kitobi: 1-sinf uchun darslik / Muallif-tuzuvchilar: T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva; Mas'ul muharrir: S. Matchonov. — T «Sharq», 2009.— 128 b.

1. G'afforova T., muallif-tuzuvchi.

BBK 81.2.O'z.—922.

ISBN 978-9943-00-031-5


© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi, 2003, 2005, 2007, 2008, 2009.

**Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli,
bilimli, dono va albatta baxtli
bo'lishlari shart.**

ISLOM KARIMOV



O'ZBEKISTON— VATANIM MENING





Vatan — bu...

Po'lat Mo'min

Vatan deganim bu —
Yurak deganim,
Yurakka Vatanim
Kerak deganim.
Vatan deganim bu —
Yurak deganim,
Birov-biroviga
Kerak deganim.
Aslida Vatan bu —
Tug'ilgan joyim,
Birinchi qadamim
Yetgan qo'rg'onim.

● She'rni yod oling.

Savol:

Vatan deganda nimani tushunasiz?

Maqol:

- Vatani borning baxti bor.

Tez aytish:

- Botir beliga belbog' bog'ladi.

Buyuklar Vatani

O'zbekiston — buyuklar Vatani.

Buyuk Amir Temur bu yurting har qarich yerini e'zozlagan. Uni oyoqosti qilganlarni yurtdan quvib chiqargan.

Ulug'bek bobomiz Vatan osmonidagi yulduzlarni o'rgangan. U kishi koinot ilmini yaratgan.

Alisher Navoiy yurtimiz go'zalligini she'rlerida ifoda etgan.

Bu yurt — shunday allomalar yurti.

Savollar:

1. Amir Temur ona yurtini qanday e'zozlagan?
2. Buyuk bobolarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?

Maqol:

- Ona yurting — oltin beshiging.



O‘zbekiston askarlari

Odil Abdurahmon



Mustaqil o‘z yurtida
Posbon erur askarlar.
Faxrlanib qo‘rishar,
Vatanini asrarlar.
Jismoniy ta’lim erur
Jangovarlik mash’ali.
Chiqar erta o‘zbekning
Generali, marshali.

● She’rni ifodali o‘qing.

Savol:

14-yanvar qanday kun?


Maqol:

- Ona yurting omon bo‘lsa,
Rangi ro‘ying somon bo‘lmas.

Tez aytish:



- Bahodir bayroqni Botirga berdimi,
Botir Bahodirga bayroqni berdimi?



Ota rozi — Vatan rozi

Eson Rahimov

Yaxshi farzand ona yerning
Jon fidosi, deydilar.

Yaxshi farzand dono elning
Ko'z ziyosi, deydilar.

Ota rozi — Vatan rozi,
O'g'lonlarim, qizlarim.
Vatan rozi — ota rozi,
Yashang, o'chmas izlarim.

- She'rni yod oling.

Savol:

Kimlar yaxshi farzand deyiladi?



SUV — SHIFO

Erkin Malik

Ravshan shifokor ko‘rigidan o‘tayot-ganda uning kurak suyaklari qiyshiq o‘sayotganligi ma’lum bo‘lib qoldi.

— Endi nima qilamiz, do‘xtir, — xavotirga tushdi dadasi.

— Oldini olsa bo‘ladi, buning uchun o‘g‘lingiz suzish bilan shug‘ullanishi kerak.

— Suv sovuq-ku, — deb yubordi Ravshan shoshib.


— Sen xavotir olma, — dedi shifokor kulib, — shahrimizda shunday hovuzlar borki, qishda ham suvi yozdagidek issiq bo‘ladi.

Ota-bola xursand bo‘lib shifokor tavsiya etgan «Jar» sport saroyini izlab ketishdi.

Savollar:

1. Shifokor nega Ravshanga suzishga qatnashishni maslahat berdi?
2. Sportning yana qanday turlarini bilasiz?





Qish

Tursunboy Adashboyev

Shudgor uzra uvullar
Ayoz bobo bo'roni.
Mehmon bo'ldi qish fasli
Oq choyshabga o'ranib.
Bundan buyon ko'cha-ko'yda
Piyma, etik g'archillar.
Tinim bermas chanalarga
Shokir, Ra'no, Barchinlar.

Savollar:

1. Ayoz bobo qachon keladi?
2. Bolalar qishda nima qiladilar?

Maqol:

- Qish g'amini yozda ye.

Topishmoqlar:

- Qishda terlab ishlaydi,
Boshqa mahal qishlaydi.

(pechka)

- Tunukani chertadi,
Kesaklarni kertadi.
Biroz «sho'xlik» qilgach u,
Yerga singib ketadi.

(I,op)

- Qish chog'i kapalaklar
Uchib yurar osmonda.
Qiziq, yo'qolib qolar
Asfaltga qo'ngan onda.

(dorparcha)

Tez aytish:

- Qishda kishmish pishmasmish.

Oy allasi

Odil Abdurahmon

Oy ona emish,
Bolasi — yulduz.
Alla aytarmish:
— Oppog'im qunduz,
Ko'zim nurini
Senga tutdim-o,
Otangday bo'l, deb,
Yo'ling kutdim-o.
Otam qayda, deb
So'rama, bolam,
Otang — Quyoshdan
Bahramand olam.



Savollar

1. Oy-onas bolasi yulduzga nimalar haqida so'zлади?
2. Quyosh, oy, yulduzlar kimlarga o'xshatilgan?





Bu juda soz, juda soz

Po'lat Mo'min

Turli-tuman
Bolalar ko'p
 jahonda,
Yig'ilsalar,
Sig'mas ming-ming
 maydonga:
Bu juda soz,
Bu juda soz,
 juda soz.
Dunyo yuzi yana tinch-u
 keng bo'lsa,
Har bolaning

Baxti doim
teng bo'lsa:
Bu juda soz,
Bu juda soz,
juda soz.

Vatanin,
Onajonin sevsalar,
Ular mehrin,
G'amxo'rlogin
sezsalar:
Bu juda soz,
Bu juda soz,
juda soz.

● She'rni yod oling.

Tez aytish:

- Qo'ng'iroq qo'g'irchoqnikimi, qo'zi-choqnikimi?

Topishmoq:

- Yungi — igna,
Burni tugma.
Ko'zi munchoq,
Bag'ri — yumshoq.



BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Qator katakchalarini unli harflar qo'yib to'ldirsangiz, kitobingizning shu bo'limiga oid gap kelib chiqadi.

1.		I		g'	b		k	
2.	t		g'		I	g	n	
3.		z	b	k		s	t	n
4.	B		y	k	I		r	
5.	V		t		n			

1. Munajjim bobomiz.
2. Dunyoga kelishni bildiruvchi so'z.
3. Vatanimiz nomi.
- 4 **va** 5. Ikkinci darsingiz mavzusi.

«Qish» she'ridagi so'zlardan foy-dalanib, katakchalarni to'ldiring.

	q			sh		
p		y			a	
ch		n		I		r
b		r			n	
	q		r			



Rebus



“Oy allasi” she’ri asosida rebusni yeching.



×



m sh,
* *



* + si



Savol va topshiriqlar:

1. Buyuk ajdodlarimizdan kimlar haqida bilib oldingiz?
2. «Vatan — bu...» she’rini yoddan aytib bering.
3. Shoir «Ota rozi — Vatan rozi» deganda nimani nazarda tutgan?
4. Qishda diyorimiz tabiatida qanday o’zgarishlar bo’ladi?
5. Shoir Po’lat Mo’min nega bolalarni ming-ming maydonga sig’maydi, deydi?



BIZ — BUYUKLAR AVLODI



Amir Temur

Amir Temur buyuk sultanat barpo qilgan. U tengsiz mard va donishmand bo'lgan. Temur bobomiz ilm-u fan, madaniyat rivojiga keng yo'l ochgan.

Amir Temur umr bo'yи o'zining «Kuch — adolatda» degan hikmatiga amal qilgan.

Temur bobomizning ishini Mirzo Ulug'-bek, Bobur Mirzo kabi ulug' zotlar davom ettirgan.

Amir Temur o‘gitlari

1. Do‘slik haqida:

- Yaxshini yomon kunda sina.
- Sodiq va vafodor do‘sst o‘z do‘sstini ranjitmaydi.
- Birliksiz kuch bo‘lmash.

2. Aql va adolat haqida:

- Kuch — adolatda.
- Oq bo‘lsang, ont ichma.
- Qo‘rqmasang, yov qochar.
- Boshga qilich kelsa-da, rost so‘zla.

Savollar:

1. Amir Temur kim bo‘lgan?
2. Amir Temur qanday hikmatga amal qilgan?
3. Siz kimni do‘sst deb hisoblaysiz?
4. To‘g‘riso‘zlik deganda nimani tushunasiz?



Rivoyat

Navbatdagi yurish oldidan Qorabog'da chodir qurib turib qoldik. Harbiy mashqlar paytida ochiq havoda tunadik. Safar oldidan chodirga qaytib, ajib manzaraning guvohi bo'ldim. Biz yo'g'imizda chodir tuynugidan ikki kabutar tushib, o'rindiqqa in quribdi. Biri tuxum bosib yotar edi.

Bu beozor jonivorlarga xalal yetkazmaslik uchun chodirni o'zga qildik. Salfarga jo'nash oldidan to'rt navkarni qoldirdik.

Ularga tayin etdimkim:


— Qushlar tuxum ochib, polaponlari uchirma bo'lguncha, shu yerda bo'lursiz. So'ngra chodirni yig'ib, ortimizdan yetib borursizlar.

Amir Temur haqidagi rivoyatlardan.

so'navlari:

1. Amir Temur chodirga kirganda qanday manzaraning guvohi bo'ldi?
2. Amir Temur parrandalarga qanday muruvvat ko'rsatdi?





G‘azal mulkinining sultonı

Bobomiz Alisher Navoiy buyuk shoir, olim va davlat arbobi bo‘lgan. Besh-olti yoshidayoq ko‘p she’rlarni yod olgan.

Bobomiz bizga juda ko‘p asarlar yozib qoldirgan. Bu ulug‘ zot shoirlarning sultoni bo‘lgan.

Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlari

- Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.
- Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.

- Yaxshi kishi yomonlarga ham yaxshilagini unutmas.
- Yaxshilikni bilmasang, yaxshilarga qo'shil.

Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Alisher Navoiy aytgan hikmatli gaplarni yod oling.
3. O'zingiz bilgan hikmatli gaplarni aytинг.

Topishmoqlar:

- Oq harirdan qanoti,
Bog'da o'tar hayoti,
Gulzorlarda sayr etar,
Kech tushmay uchib ketar.
- Ko'zi bor, kiprik qoqmas,
Qanoti bor, uchmas hech.
Oyog'i yo'q, yo'l bosar
Suv ichida erta-kech.





Alisherning yoshligi

Oybek

Kiyik Alisherni hidladi. Erkalanib surkaldi.

— Seni tanir ekan, qurmagur, xo'b o'rgatibsan o'zingga, — dedi bolalardan biri.

— Rost, qoyilman! — deya ma'qulla-di ikkinchi bola.

— Tog'am, ermak bo'lsin, deb dashtdan olib kelgan edilar. Mo'-mo', birpas-gina jim tur, — dedi kiyikni erkalab Alisher.

— Suluvligini qaranglar! Go'shti ham lazzatlidur-a? Katta bo'lsam ovchi bo'l-gumdir.


— Ov qilmoq, meraganlik — ermak narsa, lekin eng zo'r zaruriyat mакtab-dир. Turmushning ko'п sirlarini mакtab o'rgatadi, — dedi Alisher.

So'navollar:

1. Kiyikni Alisherga kim olib kelgan edi?
2. Alisherning do'sti kim bo'lishni orzu qildi?
3. Alisher hayotda nimani zaruriyat deb bildi?
4. Nima uchun mакtab zaruriyat ekan?

Y'ishmoqlar:

- O'rkach-o'rkach tuyalar
Bir-biriga suyalar.
Qimir etmas yil, asr,
Bag'rida xazina, sir.
- Oyna emas, jimirlar,
Tek turolmas, qimirlar.



Non isi

(Rivoyat)

Bir kuni Husayn Boyqaro:

— Dunyodagi eng xushbo'y narsani keltiring, — deb qolibdi. Unga quchoq-quchoq gul keltirishibdi. Sulton:

— Yo'q, — debdi.

Vazirlar nima qilishni bilmay, o'ylayverib boshlari qotibdi. Oxiri topolmasdan Ali-sher Navoiyga murojaat qilishibdi.

Navoiy bir savat non bilan saroyga yetib boribdi. Bir zumda saroyni non isi tutibdi.

— Rahmat, do'stim, — debdi Husayn Boyqaro nonni ko'rib, — yangi yopilgan non isini istayotgan edim, topib kelibsiz.

Savollar:

1. Husayn Boyqaro nima keltirishni buyurdi?
2. Vazirlar kimga murojaat qilishdi?
3. Navoiy saroyga nima olib bordi?
Darslikdan o'qib bering.

• Keksalik — donishmandlik.





Abu Ali ibn Sino

Ibn Sino bobomiz mashhur hakim va olim bo'lgan. U kishining asli ismlari Husayn bo'lgan. Yoshliklaridan ilmga qiziq-qan. Juda ko'p kitoblarni o'qigan. Natijada mashhur hakim bo'lib yetishgan. U kishi bizga juda ko'p kitoblar yozib qoldirgan.

Abu Ali ibn Sino davolayotgan kasallariga shunday degan: «Biz uch tarafmiz — men, sen va kasallik. Agar sen men tarafga o'tib olsang, u yengiladi. Agar u tomonga o'tib olsang, ikkalangni yengishim qiyin».

Savollar:

1. Abu Ali ibn Sino haqida nimalarni bildingiz?



2. U kishi bemorlarga nima degan?



Kitobga mehr

Mirkarim Osim

Husayn ertalab bozorni aylanib yurgan edi. Ko'zi kitob ushlab turgan bir kam-pirga tushdi.

- Onajon, kitobingizni soturmisiz?
- Ha, juda yaxshi kitob.

Yigitcha bor puliga kitobni sotib oldi. Uni varaqlay boshladi. Bu kitobda Husaynni qiziqtirgan savollarga javob bor edi. Husayn bu kitobni kechasi bilan uqlamay o'qiyotgan edi. Onasi — Sitorabonusu o'g'liga mehr ko'zi bilan boqar edi.

Savollar:

1. Husayn nega kitobni kechasi bilan uqlamay o'qidi?
2. Sizlarni qanday kitoblar qiziqtiradi?

Topishmoq:

- Qat-qat qatlama,
Aqling bo'lsa, tashlama.





Buyuk munajjim

Mirzo Ulug‘bek ham podshoh, ham olim edi. U kishi Amir Temurning nevarasi bo‘lgan.

Mirzo Ulug‘bek 15 yoshidan boshlab podshohlik qilgan. 40 yillik podshohlik davrida ko‘p savob ishlarni amalga oshirgan. Samarqandda rasadxona qurdirgan. Rasadxonada osmon, oy, yulduzlar kuzatilgan.

Shuning uchun u kishini buyuk munajjim, olim va shoh deyishadi.

Savollar:

1. Mirzo Ulug‘bek kim bo‘lgan?
2. Ulug‘bek bobomiz necha yoshda podshoh bo‘lgan?



- She'rni ifodali o'qing.


Ulug'bek bobom

Po'lat Mo'min

Osmonlarda nur ko'zlarlingiz,
Charaqlaydi yulduzlaringiz.
Amir Temur ruhi bo'lib yor,
Yashnamoqda bu ozod diyor.

Samarqandda bordaysiz mudom,
Ey munajjim, Ulug'bek bobom.
Fan ko'ksida yashaysiz hamon,
Ardoqlaydi jahon-u zamon.

O'chmagaydir hech izlaringiz,
Biz — yerdagi yulduzlaringiz.





Shoh va shoir

Bobur Mirzo Andijonda tug'ilgan. Uzoq yillar Hindistonda shohlik qilgan. Bizga ko'p kitob yozib qoldirgan. Shuning uchun ham Bobur Mirzoni shoh va shoir deyishadi.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo
topqusidir.

● She'rni yod oling.

Savol:

- ⌚ Bobur Mirzo haqida nimalarni bilib oldingiz?



Ona sabog'i

G'iyos Komilov

Yoz oxirlab borayotgan damlar. Osmon ko'zguday tiniq, musaffo. Yetti yashar mitti Zahiriddin onajonisining yonginasida. Ona-bola o'zaro dillashadilar. Hozir dilbandi derazadan ko'kka boqib qolgan edi. U osmondagi uyum-uyum paxtani eslatuvchi bulutlarga javdirab qarardi.

— Hazrat onajon, — dedi jajji Bobur. — Shu bulutlarni qo'l bilan ushlab bo'ladimi?

— Voy, bolajonim! — kuladi onasi. — Momiq emaski, qo'l bilan tutib bo'lsa. Ular suv zarralari-ku. Faqat bug' holatida. Bug'lardan esa bulutlar paydo bo'jadi. Ular yomg'irmi-qorga aylanib yog'ayotgandagina qo'lingizni tutsangiz...

— Ha-a-a... angladim, angladim.

Savollar:

1. Bobur onajonisiga qanday savol berdi?
2. Onasi nima deb javob qildi? Onaning javobini kitobdan o'qib bering.
3. Siz ham bulutlarni kuzatganmisiz?

Topishmoqlar:

- Tikuvchiga o'rtoq o'zi,
Bittagina jajji ko'zi.



- Yoz, kuz bo'yi chirqillab,
Don tashiydi pirillab.

Tez aytish:

- Eshik oldida buloq,
Buloqdan suv ichar uloq,
Uloqcha — uzun quloq.



BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma



Katakchalarni to'g'ri to'ldirsangiz,
«kabutar» so'zi kelib chiqadi.

1




3



4



2



6








5



1. Darslikdagi qaysi matnda kabutar haqida so'z boradi?
2. Qaysi qushlar qishda bizning yurtda qoladi? Qaysi qushlar uchib ketadi?



Boshqotirmani to‘g‘ri to‘ldirsangiz,
«alloma» so‘zi kelib chiqadi.



Savol va topshiriqlar:

1. Bu bo‘limda kimlar haqida o‘qidik?
2. Amir Temur o‘gitlarini yoddan aytib bering.
3. Alisher Navoiy haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Ibn Sino yoshligida ko‘proq nima-ga qiziqqan ekan?
5. Ulug‘bek bobomiz kim bo‘lgan?
6. U kishi haqidagi she’rni kim yoz-gan? She’rni yod aytинг.
7. Bobur onasidan qanday saboq oldi?



KO'KLAM — YASHARDI OLAM

Bahor

Tursunboy Adashboyev

Navro'z qutlar olamni,
Chaqmoq — mushak-zambarak.
Taqib olgan sochpopuk,
Boshida gulchambarak.
Xuddi gulkan qizg'aldoq,
Binafshalar qisman oq.
Somsa uchun momomlar
Terar jag'jag', ismaloq.



Savollar:

1. Bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?
2. Bahorda qanday bayramlar bo'ladi?



Lola

Hamid Olimjon



Lola bog'chaga chiqib
Kechga qadar gul terdi.
Etak-etak to'pladi,
Har kungidan mo'l terdi.

Sochiga gul bog'ladi,
Chakkasiga taqdi gul.
Yelkalaridan tashlab
Gulga ko'mildi butkul.

So'ngra uyga keldi-yu,
Birpas yotib dam oldi.
Kiprigi yumildi-yu,
Gul kabi uxlab qoldi.

Savollar:

1. Lola qayerga bordi?
2. Lola nima qildi?
3. Uyga kelgach nima qildi? Darslikdan o'qib bering.





Ona allasi

(Rivoyat)

Qadim zamonda bir podshoh bo‘lgan ekan. U bir kuni qo‘sinqchilarni chaqiribdi. Ularga navbatma-navbat kuylashni buyuribdi. Qo‘sing‘i yoqmaganlarni jazolabdi. Axiyri bir onaxonni keltiribdilar. U alla aytishni boshlabdi.

Shoh esa qo‘sinqni eshitib, yum-yum yig‘labdi. Chunki bu allada xalqning orzu-armonlari bayon etilgan ekan:

Senga qo‘ydim yaxshi ot, alla,
Yaxshi niyatdir murod, alla.

Yurt-u elga suyansang, alla,
Senga bo'lg'usi qanot, alla.

Savollar:

1. Podshoh nimani buyuribdi?
2. Onaxon qanday qo'shiq kuylabdi?
3. Nima uchun podshoh yig'labdi?



Mehribon oyijonim

Po'lat Mo'min

Juda ham a'losiz, oyijon,
Juda ham donosiz, oyijon.
Siz meni qo'zim, deb sevasiz,
Nur to'la ko'zim, deb sevasiz,
Oyijon, oyijon, oyijon.

Siz meni barchaga yaxshilab,
Quchasiz o'rgilib, erkalab.
Shu aziz boshimni silaysiz,
Menga baxt, omonlik tilaysiz,
Oyijon, oyijon, oyijon.

- **She'rni yod oling.**

Savollar:


1. Onajonlar bayrami qachon nishon-lanadi?
2. Oyijoningizni siz qanday sevasiz?

Topishmoqlar:

- Aytsalar oyim bizga,
Uyqu keladi ko'zga.
- Na boshi bor, na tani,
Na joni, na vatani.
Eshitsa biror ovoz,
Javob qaytarar showvoz.

(aks sado)





Bekinmachoq

Anvar Obidjon

Birgalashib uch o'rtoq —
Men, Aziza va Qo'shoq,
Keng lolazor qo'ynida
O'ynardik bekinmachoq.
Bekinmoqchi bo'lsam men,
Har lola imlab sekin —
Deydi: «Kelaqol, o'g'lon,
Bizning makonga bekin».

● She'rni yod oling.

Savollar:

1. Lolalar qaysi faslda ochiladi?
2. Bahorda yana qanday gullar ochiladi?



Qushcha


Abdulla Oripov

Goh butoqqa, goh gulga qo'nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha?

Kel, yashaylik hamisha birga,
Bizda bahor, gullar barchasi.
Bilsang, men ham chaman o'lkamning
Sho'x va quvnoq, shod o'g'ilchasi.

- **She'rni ifodali o'qing.**





Svetofor

Safo Ochil

Uch og'ayni botirmiz —
Uch xil rangda sodirmiz:
Qizil, yashil, sariqmiz,
Kuch-qudratga qodirmiz.

Hamjihatmiz doim biz,
Chorrahadir joyimiz.

Vaqti bilan nur sochar
Uchta to'lin oyimiz.

Qizil yonsa, tek turing,
Yashil yonsa, tez yurung.
Sariq yonsa, ehtiyot
Chorasini ham ko'ring.

Gapimiz shu sizlarga,
Barcha og'il-qizlarga:
Duch kelmaysiz xatarga,
Quloq soling bizlarga.

● She'rni yod oling.


Savollar:

1. Svetoforning chiroqlari qanday rangda?
2. Svetofor qayerda bo'ladi?
3. Qaysi rangdagi chiroq yonsa o'tish kerak?
4. Qaysi chiroqda to'xtaysiz?

Tez aytish:

- To'lqin topishmoqni to'g'ri topdi.
- Qo'chqor kecha ko'chat ko'chirdi.





Navro'z bayrami

Navro'z — yangi kun degani. 21-mart — Navro'z bayrami. Navro'zda tabiat uyg'onadi. Birinchi bo'lib chuchmoma, boychechaklar ochiladi. Onalarimiz Navro'zda sumalak pishiradilar. Yalpiz, jag'jag', ismaloq kabi ko'katlardan terib, ko'k somsalar yopadilar. Bayramda turli tomoshalar bo'ladi. Navro'z bayramida ko'chatlar ekilib, hovli-joylar supuriladi. Ko'chalar tozalanib, yasatiladi. Urishganlar yarashadilar. Hamma birgalikda o'ynab-kuladi.


Navro'z keldi, soz keldi,
Turna keldi, g'oz keldi.
Yam-yashil chorborg'lardan
Bulbulday ovoz keldi.

Savol va topshiriqlar:

1. Navro'z qachon bayram qilinadi?
2. Navro'zni odamlar qanday nishonlaydilar?
3. Taomlarga solinadigan ko'katlar nomini aytинг.

Topishmoqlar:

- Oq sandig'im ochildi,
Olamga nur sochildi.



- Dum-dumaloq barkash non,
Ko'k yuzida suzadi.


Tez aytish:

- Gulsara gulzor oralab gul sanadi.



Navro‘z

Rauf Tolib



Ko‘hna Turon elida
Navro‘zi olam.
Yellar tutar qo‘limdan:
«Qani, yur, oshnam!»
Nur sochadi mo‘l-u ko‘l
Navro‘z quyoshi.
Sayilgohda yurtimning
Keksa-yu yoshi.
Qozonlarda sumalak,
Yoziq dasturxon.
Navro‘z bayram
muborak,
Ey, O‘zbekiston!

● She’rni yod oling.

Savollar:

1. Navro‘zda tabiatda qanday o‘zgarish bo‘ladi?
2. Navro‘zda qanday taomlar pishiriladi?






BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH


Boshqotirma



Katakchalarni tepadan pastga qarab to'g'ri to'ldirsangiz, «alla» so'zi kelib chiqadi.



Bahor gullarining nomini ayting.





Navro'zda qilinadigan ishlarni ayting.



Savol va topshiriqlar:

1. Bahor fasli haqida kimlar she'r va hikoyalar yozgan?
2. Bahorda qanday bayramlar nishonlanadi?
3. Bahor o'lkamizga qanday gullar va qushlar bilan tashrif buyuradi?
4. O'simliklar, daraxtlar va gullar haqida topishmoqlar ayting.
5. Bahor haqida o'zingizga yoqqan biror she'rni yod ayting.



ILM — AQL CHIROG'I



Maktab — oftob qo'shig'i

Quddus Muhammadiy

Dunyoda eng sevgan joying
Qayer, dedi.
Dedim: Maktab, dedim: Oftob!
Sababin ayt, dedi. Dedim:
O'rgatadi ilm-u odob.
Ota-onam sevar meni,
Qarog'im, quvonchim, deb.
O'qituvchim sevar meni,
O'quvchim, a'lochim, deb.
Dunyoda eng sevgan joying
Qayer, dedi.
Dedim: Maktab, dedim: Oftob!

- She'rni yod oling.



Kitobni asrang

Kitob qadim-qadimdan e'zozlangan. Ota-bobolarimiz kitobni qo'liga olganda, uni o'pib, ko'zlariga surtganlar. Bu «Bizga bilim berasan, seni ko'z qorachig'idek asraymiz», deganlaridir. Uning varag'ini yirtish, iflos joylarga qo'yish gunoh sanalgan. Kitobni muqaddas deb bilganlar.

H i s s a:

Kitob — bilim bulog'i,
O'quvchining o'rtog'i.

Savol:

Qadimda ota-bobolarimiz kitobga qanday munosabatda bo'lganlar?

Maqol:

- Bilimdan ortiq boylik yo'q.

Topishmoq:

- Tinmay o'qisang agar,
Ko'p narsani o'rgatar.
Bilsang, uka, o'ylab top,
Bilim koni u



Kitob, mening do'stimsan

Zafar Diyor


Yosh o'ynoqi ko'zlarim
Shuur olar kitobdan.
Tashkil topib so'zlarim,
Baxtim kular kitobdan.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do'stimsan!
Har sahifang men uchun
Bir hikoyat so'zlaydi.
«O'qib, olim bo'lgan», — deb
Yaxshi niyat ko'zlaydi.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do'stimsan!..

● She'rni yod oling.

Maqollar:

- Bilgan o'qir, bilmagan to'qir.
- Avval o'rgan, keyin o'rgat.





O‘quv va bilim haqida

Yusuf Xos Hojib

O‘quv, idrok, bilim haqida alohida to‘xtash joiz. O‘quv, idrok qorong‘i tundagi mash’alga o‘xshaydi. Bilim esa mash’aldan taralayotgan nurga o‘xshaydi.

O‘quv qut beradi, bilim —
sharaf-shon,
Shu ikkovi tufayli ulug‘dir inson.

Bunga ishonmasang, shubha qilsang, ko‘zingni katta och. Menga bitta hikmatli so‘z yaxshi ma’lum: «Bilimdon o‘z bilimi tufayli balo, ofatlardan omon qoladi».

Savollar:

1. O'quv, idrok nimaga o'xshar ekan?
2. Bilim nimaga o'xshaydi?
3. O'quv va bilim insonga nima beradi?
4. Donishmand nima degan ekan?
Matndan o'qib bering.

Maqol:

- Aqlning qayrog'i — bilim.

Tez aytish:

- Salima, Saida, Sokina sahi-fani sinchiklab o'qidilar.

Topishmoqlar:

- Ikki ajib qulog'i bor,
Biri tinglar, biri so'zlar.



- Rangi har xil,
Nomi bir xil.





Kompyuter

Kompyuter — aqlii mashina. U — insonning do'sti. Uning xotirasida minglab axborotlarni saqlash mumkin.

Agar do'stlashsangiz, ko'p sirlardan xabardor bo'lasiz. U matematikadan misol va masalalarni bir zumda yechib beradi.

Kitob o'qimoqchi bo'lsangiz, unga aytинг. U darhol sizga yordamga oshiqadi.

Biror narsani yozmoqchi bo'lsangiz, u tayyor. Charchasangiz, musiqa tinglashingiz yoki kino ko'rishingiz mumkin.

Kompyuter siz bilan o'ynay oladi ham. U shaxmat, shashka o'yinlarini yaxshi biladi. Kompyuter bilan istagan o'yiningizni o'ynashingiz mumkin.

H i s s a:

Ilm olsang dunyoda,
Aqling bo'lar ziyoda.



Savollar:

1. Kompyuter haqida nimalarni bildingiz?
2. Kompyuter bilan do'stlashish mumkinmi?



Yaxshi niyat


Anvar Obidjon

Hammada ham bor havas,
Mana kichkina Avaz.
Ko'kka boqar uqlamay,
Men dedim, qani, so'ray:
«Qaylarga uchdi zikring?»
U der: «Qaniydi bo'lsam
Men quruvchi-kosmonavt.
Qurar edim oyda ham
Bog'cha, maktab, internat...»

Savollar:

1. Avaz nimani xayol qilgan ekan?
2. U niyatiga yetish uchun nima qilishi kerak?
3. Siz ham niyat qilganmisiz?





Toshbaqa va quyon

G‘ulom Muhammad Vosif

Quyon bilan toshbaqa yo‘lda duch kelib qoldilar. Quyon toshbaqaga qarab: «Sendek landavur va ishyoqmas joni-vorni umrimda ko‘rgan emasman. Bir necha qadam yo‘lni uzoq fursatda bosib o‘tasan. Men esa bir onda bosib o‘tamani», — dedi. Toshbaqa: «Meni tanbal, deb ta’na toshini otma. Odatim shu. Agar xohlasang, sen bilan chopishaman», — dedi. Marrani belgiladilar. Quyon tez chopib ketdi.

Marraga baribir oldin borishiga ishonib, balandlikka yetganda cho‘zilib, uxbab qoldi. Toshbaqa esa manzilga undan oldin yetib keldi.

H i s s a:

Vaqt kutib turmaydi,
Har bir daqiqani g‘animat bil.

Savollar:

1. Quyon toshbaqaga nima dedi?
2. Toshbaqa nima dedi?
3. Quyon nega toshbaqadan orqada qoldi?

Topishmoqlar:

- Suvdan bo‘lgan, qotsa
Qani suvga botsa. (znw)
- «Chiq-chiq» der, yo‘q to‘xtovi,
Vaqtning aniq o‘lchovni.



Tez aytish:

- Tez aytgin-u, tez gapir,
Tez aytganga bir patir.



BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

«Kitobni asrang» matnidagi so'z-lardan foydalanib kataklarni to'ldiring.

	k		z	
k		t		b
b	b		l	r
b		l		m
b		r		

Rebus

Rebusni yechsangiz, kitob haqidagi hikmatli gap kelib chiqadi:



bi




b




+ g'i.



O'quvchiga maktabni topib borishida yordam bering.



mas shi llm



bo'l




O'quvchiga yordam berib, qaysi hikmatli gapni o'rGANIB oldingiz?

Savol va topshiriqlar:

1. Kitobni qanday asrash kerak?
2. Kompyuter qanday vazifalarni bajara olar ekan?
3. Avaz qanday niyat qildi?
4. Quyon nima uchun musobaqada toshbaqadan yengildi?
5. Bilim olish haqidagi maqollardan ayting.



XALQ O'GITI — BAXT KALITI



Sher va sichqon (Ertak)

Oq ko'ngilli sher bir kuni sichqonga yaxshilik qilgan edi. Oradan bir necha kunlar o'tib, sher tasodifan tuzoqqa tu-shib qoldi. Sherning yaxshiligini sichqon esdan chiqarmagan edi. U o'tkir tishlari bilan tuzoqni qirqib, o'z najotkorini qut-qardi.

H u k m a t l i g a p:

Yaxshining yaxshiligi tegar tor yerda,
Yomonning yomonligi tegar har yerda.

Savollar:

1. Sher nima qilgan edi?
2. Sichqon sherni nima uchun qutqardi?

Maqol:

- Yaxshilik qilsang — yaxshilik ko‘rasan.

Topishmoq:


- Toping-chi uning nomin,
Sichqonning berar dodin?



Tez aytish:

- Qobil qozonda qovurdoq qovurdi.
- Qodir qag‘illagan qarg‘aga qaradi.





Maymun va duradgor

(Ertak)

Bir maymun duradgorning yog'och ustida o'tirib pona bilan uni yorayotganini ko'rib qoldi. Duradgor bir ponani qoqib, ikkinchisini chiqarib olar edi. Uni boshqa yerga qoqib, yog'ochni yorib borar edi.

Duradgor zarur ish bilan bir yoqqa ketdi. Buni ko'rghan maymun duradgorning ishini davom ettirmoqchi bo'ldi. U

yog'ochning ustiga minib oldi. Maymunning dumi yog'ochning yorig'iga tushib turgan edi. U ponani sug'ura boshladi. Maymun ponani sug'urgan ham ediki, yog'och dumini qisib qoldi. Maymun hushidan ketdi.

Savollar:


1. Duradgor nima ish qilayotgan edi?
2. Maymun nima qildi?
3. O'ziga aloqador bo'Imagan ishga aralashishning oqibati nima bilan tuyaydi?

Maqol:

Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin.


Topishmoqlar:

- O'sar ko'kka bo'y cho'zib, Qulochday bargin yozib. Xipcha bel, zarrin soqol, Tishlari zich, dur misol.



- Oqmas suvda o'zingni ko'r.





Rostgo'y bola

(Ertak)

Qadimda bir podshoh bo'lgan ekan. Podshohning farzandi yo'q ekan. Shuning uchun u doimo xomush bo'lib yurarkan. Podshoh vazirning maslahati bilan bola-larga gul urug'i tarqattiribdi. Kimning guli chiroyli bo'lsa, o'shani podshoh farzand qilib olmoqchilagini aytishibdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tibdi. Podshoh gul o'stirganlarni ko'rish niyatida shahar aylanibdi. Ko'p bolalar va ular o'stirgan gullarni ko'rib o'taveribdi. Bir ko'chaga yetganda gulsiz tuvak ushlab o'tirgan bolakayga podshohning ko'zi tushibdi. Bolakayning oldiga borib:

— Sen o'stirgan gullar qani? — deya so'rabdi.

Shunda bolakay gul urug'i o'sib chiqmaganligini aytibdi.

Podshoh:

— Men farzand qilish niyatida axtargan bola mana shu bo'ladi, — debdi.

Chunki podshoh gul urug'larini qaynattirgan ekan.

Savollar:

1. Podshoh o'ziga farzand tanlash uchun nima qilibdi?
2. Bola gulni nega o'stira olmabdi?
3. Podshoh xalqqa nima debdi?



Topishmoqlar

1. Har kun yerga tushadi
Ikkita sara parda.
Ikki rangda ikkovi —
Oq parda, qora parda.
Tushganda qora parda,
Oq parda bekinadi.
Oqi tushsa agarda,
Qorasi chekinadi.



2. Chopsa, chopilmas,
Bo'lsa, bo'linmas.
Kessa, kesilmas,
Ko'msa, ko'milmas.

3. Yer tagida oltin qoziq —
U hammaga bo'lar oziq.



4. Yomg'irdan so'ng chiqadi,
Cho'tir qalpoq kiyadi.
Quyoshni yoqtirmaydi,
Shamolni chaqirmaydi.

5. Ajib ishlar bo'ladi,
Uxlaganlar ko'radi.



6. Kichkina dekcha —
Ichi to'la mixcha.



7. Pishsa bemaza,
Pishmasa maza.



8. Dum-dumaloq bo'yи bor —
Palovda obro'yи bor.




9. Bir onadan yuz bola —
Yuzovi ham bo'z bola.



10. To'ni silliq, tuki yo'q —
Ichi qizil, ko'ki yo'q.





Laylak keldi — yoz bo‘ldi

(Qo‘sish)

Laylak boradi toqqa,
Quloqlarida halqa.
Halqasi tushib qoldi,
O’tirdi yig’lamoqqa.

Men bobo hoji edim,
Qizlarga boshchi edim.
Qizlar o‘yin tushganda,
Men nog‘orachi edim.

Laylak keldi, ilon, qoch,
Bola-chaqang olib qoch.
Yangi to‘ning kiyib qoch,
Eski to‘ning tashlab qoch.

● **She’rni yod oling.**



Latifalar

Uyqum qochib ketdi

Afandi yarim kechasi uyg'onib ketib, keyin hech uxlolmadi. U ko'chaga chiqib, sayr qilib yurgan ekan. Ko'cha qorovuli uchrabdi. Qorovul:

— Tunda nima axtarib yuribsan? — deb so'rabdi.

— Uyqum qochib ketdi, uni qidirib yuribman, — deb javob qilibdi Afandi.

Tuya eshikdan sig'maydi

Afandi yosh bola edi. Ko'cha eshigi oldida non yeb o'tirgan edi. Bir kishi kelib uni aldamoqchi bo'ldi:

— O'g'lim, tuyani yaxshi ko'rasanmi?

— Ha.

— Kel, noningni tuya qilib beray.

Afandi bir nonga, bir kishiga qarabdi:

— Tuya eshigimizdan sig'maydi. Qo'ya-vering, o'zim bo'taloq qilib olaman.

Savol:

Hozirjavoblik qanday xislat?



BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Rebus



Rebusni yechsangiz, oymoma haqida topishmoq kelib chiqadi:

1

p + ,

/ o
ø + ga t +

Savol va topshiriqlar:

1. Insonlarga yaxshilik qilish deganda nimalarni tushunasiz?
2. Bilmagan ishga shoshma-shosharlik bilan aralashishning oqibati qanday bo'ladi?
3. Rostgo'ylik haqidagi maqollardan ayting.
4. O'zingizga yoqqan ertakni aytib bering.
5. Siz ham latifa bilasizmi?



ODOB — INSONGA HUSN

Oftob va odob

Po'lat Mo'min

Oftob yaxshimi,
Odob yaxshimi?
Oftob berar nur,
Odob-chi — huzur.



Lolalar uchun
Oftob yaxshidir.
Bolalar uchun
Odob yaxshidir.



Oftob bo'lmasa,
Qorong'u tushar.
Odob bo'lmasa,
G'am-qayg'u tushar.

Oftob ko'rinar
Tog'-tepalikda.
Odob ko'rinar
Salom-alikda.

● **She'rni yod oling.**



Odob

(Rivoyat)

Bir kishi Luqmoni hakimdan: «Odobni kimdan o'rgandingiz?» — deb so'radi. «Odobni odobsizdan o'rgandim», — deb javob bergen ekan Luqmoni hakim. «Odobni odobsizlardan qanday o'rgandингиз?» — deb so'rabdi u kishi. Luqmoni hakim javob berdilar: «Doim odamlarning qilgan ishlariga, so'zlagan so'zlariga diqqat bilan qarab yurdim. Kimdan bir yomon so'z eshitsam, shu so'zni hech bir so'zlamadim. Kimda-kim bir yomon ish qilsa, shu ishni hech bir qilmadim».

Savollar:

1. Luqmoni hakimdan nimani so'radilar?
2. U kishi nima deb javob qildi?
3. Odobni odobsizdan qanday o'rganish mumkin ekan?
4. Odobli bo'lish uchun nimalar qilish kerak?





Kapalak

Mirmuhsin

Chiroyli kapalak uchib kelib gulga qo'ndi. Iqbol sekin borib uning qanotlaridan mahkam tutib oldi.

— Qo'yib yubor, Iqbolxon, qanotlarimni sindirma, — dedi yig'lab, tipirchilab chiroyli kapalak.

— Men seni o'ynayman, rosa zerikib o'tirgan edim, — dedi Iqbol.

— Meni qo'yib yuborsang, har kuni

kelib seni o'ynataman. Hech zeriktirmayman, — dedi kapalak.

— Meni zeriktirmaysanmi? — deb so'radi Iqbol.

— Ha, kel, o'rtoq bo'laylik, — dedi kapalak.

Iqbol chiroyli kapalakni qo'yib yubordi. Kapalak pirillab uchdi.

— Kapalak, kapalak, qanotlaring chiroyli, ketma, birga yuraylik, — dedi Iqbol yana.

Iqbol bilan kapalak o'rtoq bo'lishdi.

Savollar:

1. Iqbol nega kapalakni tutib oldi?
2. Kapalak bilan Iqbol qanday qilib do'st bo'ldilar?
3. Siz qanday kapalaklarni bilasiz?

Topishmoq:

To'rt o'rtoq bor: zo'r ishi, —

Odam, olam tashvishi.

Har biri xursand etar,
Izma-iz kelib ketar.





Maslahat

Iskandar Rahmon

Jiringlasa telefon,
Asta olib go'shagin:
— Labbay! Salom! — degin-u,—
Kimsiz? — deya so'ragin.
Tanish bo'lsa so'zlashgin,
Yo'qsa gapni kalta qil!
So'rasha sir, ma'lumot,
Sira-sira aytmagil!

Ota-onang nomidan
Qilsa kimdir qo‘ng‘iroq,
Sen bu gapga ishonma,
Hushyor bo‘l, solma qulq!

Savollar:

1. Telefonda so‘zlashish odobini o‘rgan-dingizmi?
2. Ota-onangiz nomidan qo‘ng‘iroq qilihsa nima qilasiz?

Maqol:

- O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.

Topishmoq:




- Loy va jundan tanasi, Hovlimizda xonasi. Yemishi olov, xamir, Beradi shirmoy, patir.

Tez aytish:



- Guldondagi gullar gulladi.



Ochko‘z sichqon

(Ertak)

Bir sichqon bo‘lgan ekan. U bir kuni bug‘doy xirmonini ko‘rib qolibdi. Darrov o‘z inidan xirmonga teshik ochibdi. Bug‘doy donlarini iniga tushira boshlabdi.

«Qishda maza qilaman, tayyorgina donlarni yeb», — deb o‘ylabdi o‘zicha.

Bundan xabardor bo‘lgan boshqa sichqonlar ham xirmon donidan o‘z inlariga tashiy boshlabdilar. Boyagi

sichqon esa baxillik qilib, teshikni kattaroq ochibdi. Shunda birdan hamma don sichqon iniga shuvullab tushibdi. Sichqon esa don tagida qolibdi. U qat-tiq chiyillabdi, ammo boshqa sichqonlar uning ovozini eshitmabdilar.

Savollar:

1. Sichqon donlarni olish uchun nima qildi?
2. Sichqon nega chiyilladi?

Maqol:

- Ochko‘zlik yomon odat, Keltirar u falokat.



Taqsim

Abdulla Avloniy

Bir kuni ikki bola ko‘chada o‘ynab yurgan zamonda bitta yong‘oq topib oldilar.

Biri: «Men olaman, awval men ko‘rdim», — dedi.

Ikkinchisi: «Yo‘q, birodar, men ola-man, yerdan men oldim», — dedi.

Ikkalasi janjallahib qoldi. Bir yigit kelib: «Ey chirog‘larim, shoshmang, talashmang. Men sizlarga yaxshi-lab taqsimlab beraman», — dedi.

U yong‘oqni bolalar qo‘lidan olib, ikki-ga ajratdi. Bir palla po‘chog‘ini birinchi bolaga, ikkinchi palla po‘chog‘ini ikkinchi bolaga berdi: «Mana, qolgani taqsim qil-gan kishiga», — dedi.

Yong‘oqning mag‘zini og‘ziga solib, jo‘nab ketdi. Bolalar esa yong‘oq po‘-chog‘ini ushlab, ajablanib qoldilar.

H i s s a:

Ozga qanoat qilmagan ko‘pdan qolur.



Savollar:

1. Bolalar nimani talashib qoldilar? 
2. Yigit yong‘oqni qanday bo‘lib berdi?
3. Ozga qanoat qilmasa, nima bo‘ladi?



Tinchlik nima?

Umida Abduazimova

— Tinchlik nima?
— Sho'xliging,
Polvonliging tinchlikdir.
Usting but-u to'qliging,
Sog'lomliging tinchlikdir.

Dunyodagi yaxshilar
Urushga choh qazishar.
Gullarga, daraxtlarga
Tinchlik so'zin yozishar.


Gul bo'lib, daraxt bo'lib,
O'sib boradi tinchlik.
Urush — halokat yo'llin
To'sib boradi tinchlik.

Savol va topshiriqlar:

1. Siz tinchlikni qanday tasavvur qilasiz?
2. Tinchlik nimaning yo‘lini to‘sadi?
3. Tinchlik haqida bilgan maqol va she’rlaringizni aytинг.



«Tinchlik nima?» she’ri mazmumidan kelib chiqib katakchalarni to‘ldiring.




Maqol:

- Eling omon – sen omon.

Tez aytish:

- Oq choynakka ko‘k qopqoq,
Ko‘k choynakka oq qopqoq.





Chiroyli salom

Safar Barnoyev

Nigina uyqudan kech uyg'ondi. Oila a'zolari nonushta qilib bo'lgan edi.

Xurshid buva nevarasini kutdi. Nigina buvasiga dedi:

— Buvajon, sizga chiroyli salom bermasam ham ko'chaga chiqib ketavera-sizmi?

— Ha, — dedi buvasi. — Salom uyqudan barvaqt turib beriladi.

— Hozir, buvajon.

Nigina apil-tapil yuz-qo'lini yuvdi. Keyin toshoyna oldiga borib, sochini taradi. So'ng buvasi tomon qayrilib, ta'zim qildi:

— Assalomu alaykum, buvajon.

Buva: — Vaalaykum assalom, — deb uning peshanasidan o'pdi.

Buva ko'chaga yo'l oldi. Nigina chehrasi ochilib uni kuzatdi.

Savollar:

1. Hikoya kim haqida ekan?
2. Niginani qanday qiz deb o'ylaysiz?
3. Xurshid buva Niginaga nima deb tanbeh berdi?
4. Buva nima uchun nevarasining peshanasidan o'pdi?

Hikmatli gaplar:

- Eshik ochiq bo'lsa ham so'rab kir.
- Yaxshiga yondosh, yomondan qoch.

Tez aytish:

- Salomat sanamay sakkiz demas.



BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH



Bo'sh katakchalarga tushirilgan tovushlardan mosini qo'yib o'qisangiz, kitobingizning shu bo'limiga oid hikmatli so'z kelib chiqadi.


O		o		I	
b			I		
e			g		
m		n		u	

Savol va topshiriqlar:

1. Odamlar odobni kimdan o'rganadilar?
2. Telefonda qanday so'zlashish kerak?
3. Baxillik sichqonga nima keltirdi?
4. «Qanoatda — barakat» maqolinining ma'nosini tushuntirib bering.
5. Nima uchun odamlar tinchlikni istaydi?
6. Odobli insonga xos sifatlarni aytинг.
7. O'qigan asaringizdagi qaysi qahramon sizga yoqadi? Nima uchun?



MEHNATNING TAGI — ROHAT



Aqlii bog'bon

(Ertak)

Bir bog'bonning uch o'g'li bor edi. Ular dangasa va ishyoqmas edilar. Bog'bon bir kuni kasal bo'ldi. U o'g'illarini yoniga chaqirib, shunday vasiyat qildi: «O'g'illarim, mening ajalim yetganga o'xshaydi. Bog'ning ichiga bir ko'za oltin ko'mib qo'yganman. O'zingiz kovlab topib, bo'lishib olasiz».

Oradan bir necha kun o'tib, bog'bon dunyodan ko'z yumibdi. O'g'illari oltin axtarib, bog'ni shunday qazibdilarki, turroqlari kul bo'lib ketibdi. Lekin tokning ildizidan boshqa hech narsa topa olmabdilar. Ammo shu yili tok shunday uzum qildiki, uning pulidan bir necha ko'za oltinga to'ladigan bo'ldi. So'ngra bu yalqovlar bildilarki, oltin yerda emas, mehnatda ekan.

H i k m a t l i g a p:

Hamma yomonliklarning boshi — dan-gasalik va qo'rqoqlik.

Savollar:

1. Bog'bon o'g'illariga nima deb vasiyat qildi?
2. Oltin qayerda ekan?

Maqol:

- Aql — boylik kaliti.

Tez aytish:



- Salima Salimdan savol so'radimi, Salim Salimadan savol so'radimi?



Soqi bilan onasi

Abdulla Avloniy

Bir kuni Soqi mактабдан келиб, onasiдан ovqat so'radi.

Onasi oldiga bir kosa ovqat keltirib qo'ydi. Soqi sho'rvadan bir qoshiq og'ziga olib: «Ona, men bu mazasiz sho'rvani ichmayman», — dedi.

Onasi: «Ichmasang qo'y, o'g'lim, boshqa ovqat pishirib beraman», — deb olib qo'ydi. Soqiga kechgacha xazon tashittirdi. Soqi horib, charchab, qorni ochdi. Onasi yana shu sho'rvani isitib keldi. Soqi sho'rvadan biroz ichib ko'rib: «Mana, onajon! Bu qanday totli sho'rva

bo'libdi. Umrimda bunday shirin sho'r-vani ichganim yo'q», — dedi. Onasi kulib: «Ey o'g'lim, bu boyagi o'zing ichmagan sho'rva. Hozir sen harakat qilding, ishlading, qorning ochdi, ishta-hang ochildi. Sho'rva ham shirin tati-di», — deb javob qaytardi.

H i s s a:

Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.

Savollar:

1. Soqi mактабдан келиб, онасига нима деди?
2. Onasi нима қилди?
3. Soqi нега овқатни ширин деди?

Topishmoqlar:

- Palak ostida
Yotar talay tosh.
Uni pishirsang,
Bo'lar shirin osh.



- Oq samanim osmonda chopar,
Yag'rinlari quyoshni yopar.



Yer nima der?

Po'lat Mo'min

Bilasizmi, ona yer
Hammamizga nima der?
Eng birinchi bizga u
Deydi: Menga ko'ngil ber.
U bizlarga uqtirar:
— Mehnat qilgan halol yer.
— Hosil beray, — deb aytar, —
Peshanadan to'ksang ter.
Bizga yana so'zlaydi:
— Yaxshilarga gullar ter.
Eng oxirgi so'zi soz:
— Bor ekanman, yashayver.

Savol:

Yer insonlarga nima der ekan?

Hikmatli gap:

- Yer boylikning onasi bo'lsa,
Otasi — mehnat.

Tez aytish:

- Qo'zichog'im qo'ng'ir, oq,
Qo'ng'iroqli qo'zichoq.



Tugma

Shuhrat

Erkinjonning kiyimidan tugmasi tushib qolibdi.

— Iye, o'g'lim, tugmachang tushib qolibdi-ku, — dedi buvasi.

Erkinjon beparvo turgan edi. Yana dedi:

— Hammasi kichkina narsadan boshlanadi. Bugun tugmachaga befarq qarasang, ertaga poyabzaling yirtilsa ham yuraverasan. Bu yaxshimas. Qani, darrrov qadab ol!

Erkinjonning ayasi ip o'tkazayotgan edi. Buvasi norozi bo'lib dedi:

— O'ziga bering, o'zi o'tkazsin, tugmaniyam o'zi qadasin!

Erkinjon tugmani zo'rg'a qadadi. Bir marta barmog'iga igna kirib ketdi.

— Odam bolasi har narsaga qodir, faqat qunt kerak, — dedi buva.

Hissa: Harakat qilsang, barakat bo'lar.

Savol:



Bobo nega Erkinjonga tanbeh berdi?

Maqtanchoq g'oz

Abdulla Avloniy

Bir g'oz suvda suzib yurib, o'ziga-o'zi maqtanib: «Olamda menday hunarmand qush yo'qdir. Yerda yuraman, suvda suzaman, havoda uchaman. Bir o'zimning uch xil hunarim bor», — debdi. G'ozning bu so'zini bir qurbaqa eshitib: «Birodar, sen buncha maqtanmasang ham bo'lar edi. Chunki baliqdek suza olmaysan, kiyikday Yugura olmaysan, lochindek ucha olmaysan. Chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing ma'qul», — debdi.

Savollar:


1. G'oz nima deb maqtandi?
2. Qurbaqa unga nima dedi?
3. Sizning fikringiz qanday?



Maqol:

- Chiranma g'oz, hunaring oz.





Hakka va uning bolalari

(Ertak)

Bir kuni hakka bolalarini dalaga olib boribdi-da:

— Endi sizlar katta bo‘lib qoldingiz, ovqatingizni o‘zingiz topib yeishingiz kerak, — debdi.

Ona hakaning bu gaplari bolalariga yoqmabdi.

— Odamlar bizni o‘q bilan otib o‘ldirishsa, nima qilamiz, — deyishibdi hak-kavachchalar.

— Bundan qo‘rqmasalaring ham

bo‘ladi, — debdi ona hakka. — Odamlar oldin nishonga olishadi. To o‘q otilguncha ancha vaqt o‘tadi. Ular ko‘kraklari- ga miltiqni qadagunga qadar siz uchib ketasiz.

— Shundayku-ya, — deyishibdi hakka bolalari, — agar odam bizni tosh bilan urib tushirsa-chi?

— U tosh olish uchun yerga engashadi-ku! — debdi ona hakka.

— Qo‘lida tayyor toshi bo‘lsa-chi? — yana e’tiroz bildirishibdi bolalari.

— O‘h-ho’, sizning aqlingiz shunchaga yetar ekan, demak, dushmanidan saqlanishning uddasidan chiqasizlar, — debdi- da, ona hakka bolalarini dalada qoldirib, o‘zi uchib ketibdi.


Savollar:

1. Ona hakka bolalariga nima debdi?
2. Bolalari nega ona hakanining aytgani- ni qilishni xohlamabdilar?

Tez aytish:

- Botir botmas botqoqqa.





Ona yer

Ibrohim Rahim

Maktabdan o‘z uyiga kelguncha
Anvarjon duch kelgan jami narsalarni
sinchiklab kuzatib keldi. So‘ng ayasiga
murojaat qildi.

- Ayajon, ho, ayajon!
- Labbay, qo‘zichog‘im!
- Yer shuncha narsani bitta o‘zi
ko‘taradimi?

- Bitta o‘zi ko‘taradi.
- Uylar... odamlar... tramvaylar... hammasini yer ko‘tarib turibdi. Beli og‘rimaydimi?
- Og‘rimaydi.
- Charchamaydimi?
- Charchamaydi. Bundan tashqari yer meva-cheva beradi. Yeydigan nonimiz ham mana shu yerda bitadi. Shuning uchun biz uni ona yer deymiz.

Anvarjon ayasining shu gapidan keyin yerga yanada mehri ortganday, unga mehribon boqadigan, yerni aziz deb biladigan, jahli chiqqanda yerni depsimaydigan bo‘ldi.

Savollar:

1. Anvarjon ayasiga nima deb savol berdi?
2. Ayasi Anvarga nima deb javob qaytardi?

Maqollar:

- Halol mehnat — yaxshi odat,
Berar senga saodat.
- Hunarli kishi xor bo‘lmas.





Yurak

(Rivoyat)

Qo'l kerilib, ikki tomonga tarvaqaylab:

— Men zo'rman, chunki hamma narsaga cho'zilsam yetaman, — debdi maqtanib. Oyoq gerdaiyib:

— Men sendan ko'ra zo'rman, qayerga boraman desam bora olaman, — deb yer tepinibdi.

Bosh o'zini mag'rur tutib:

— Hammangdan zo'rroq men bo'laman, chunki men o'ylasamgina ishlaring bitadi, — debdi.

Betinim ishlab holdan toygan Yurak birpas dam olmoqchi bo'lib to'xtabdi. Shu payt Qo'l bo'shashib ikki tomonga shalpayib tushibdi. Oyoqning biri ikkinchisiga chirmashib yurolmay qolibdi. Shilq etib Bosh o'zini yelkaga tashlabdi.

Yurak: «Yo'q, bir zum to'xtashga haqqim yo'q ekan», — debdi-da, tag'in mehnat qila boshlabdi. Keyin Qo'l, Oyoq va Boshga qarab:

— Meni ehtiyot qilishlaring kerakka o'xshaydi. Men to'xtasam, sizlarga qiyin bo'lar ekan, — debdi kamtarlik bilan.

Maqol:

- Bilmaganni bildim dema,
Qilmaganni qildim dema.

Savollar:

1. Qo'l nima dedi?
2. Oyoq nega yer tepindi?
3. Bosh nega hammadan zo'rroqman dedi?
4. Yurak nima qildi?





BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma



Quyidagi boshqotirmani yechсангиз, «Yer nima der?» she'riga oid jumla kelib chiqadi.



1 2 3

5 6



Rebus



Rebusni yechsangiz, «Aqlii bog‘-bon» hikoyasidagi hikmatli gap kelib chiqadi.

6 + n



y
sh + da



m s,
* *



m
* +



n
x + da.

Savol va topshiriqlar:

- «Bog‘ ichida oltin ko‘mib qo‘yganman» deganda bog‘bon nimani nazarda tutgan?
- «Yer nima der?» she’rini yoddan aytинг.
- Erkinjon nega tanbeh eshitdi?
- Orangizda maqtanchoq g‘ozga o‘xshagan bolalar bormi?
- Hakka nega bolalarini tashlab ketdi?
- Ona yer bizlarga nimalar beradi?



MUSTAQIL O'QISH UCHUN

Boychechak

Muhtarama

— Boy chechag-u oy chechak,
Muncha xushchiroy chechak.
Senga osmon mehribon,
Keng qirlar saroy, chechak.
Kulgilaring nur sochar,
Atirlaring moy, chechak.
Men bilan yur, uyimiz —
Senga issiq joy, chechak.
— Bilib qo'ygin, emasman
Men arzandaoy chechak.
Ulash barcha do'stingga,
Chunki nomim — boychechak.





Ota-oná

Tolib Yo'Idosh

Ota-oná ikki so'z,
Biri qosh-u biri ko'z.
Bir-biridan qimmatli,
Mehri daryo, himmatli.
Ular o'zin o'ylamas,
Farzandi sog' bo'lsa bas.
Farzand deb tomdan tashlar,
Hamma siga chidarlar,
Bular qo'sha chinorlar.

Ibn Sino haqida rivoyat


Abu Ali ibn Sinoning onasi uni cho'miltirayotganida qimmatbaho uzugini yo'qotib qo'ygan ekan. U uzugini ko'p qidiribdi. Lekin hech qayerdan topa olmabdi. Keyin uni kanizak olgan deb gumon qilib, bechora kanizakni rosa kaltaklashibdi.

Ibn Sino tilga kirganda birinchi aytgan gapi shu bo'libdi:

— Sizlar o'sha vaqtida kanizakni nohaq urgan edinglar. Onam meni cho'miltirayotganda, uzugi tog'oraga tushib ketgan edi. U tog'orani ag'darganda uzuk ham suv bilan birga kir-o'raka tushib ketgan.

Shundan keyin o'rani kovlashgan ekan, uzuk topilibdi.

Bu voqeani eshitgan-u bilganlar Ibn Sino zehniga qoyil qolishgan ekan.



Chinor va maysalar

Ollayor Begaliyev

Chinorning tuni bilan uyqusi buzilib turdi.

Ba'zan oh urar, ba'zan esa yosh boladay qiqirlab kulardi. Chinor alahlaganda, maysalar cho'chib ketishardi.

Tong otdi. Quyosh nurlari bilan chinorni quchoqlab oldi.

— Omonmisiz, go'dagim?

— Go'dakmish, — chinorni mazax qildi maysalar.

— Sizlar ham go'daksizlar, — dedi Quyosh bobo, nurlari bilan maysalarni chimchilab.

Chinor tuni bilan bezovtalanib chiqqanidan nolidi:

— Nega bunday bo'ldi, hayronman? Ilgari tinch uxlardim.

— Axir, bundan ming yil ilgari xuddi shu kuni urug'ingni yorib, yer yuziga chiqqanding-ku! — dedi Quyosh bobo.

— Buni qarang-a, ming yoshga to'l-dimmi hali? — Chinor maysalarga qaradi.

— Ming yosh? Bu nima degani? — maysalar hayron bo'lishdi.

— Ming yosh degani o'rtancha o'g'lim Zaminbekning mening atrofimda ming marta aylanib chiqishi, — dedi Quyosh bobo.

— Zaminbek kim? Nega u sizning atrofingizda aylanadi?

— Hoy Chinor, o'zing tushuntirib ber maysalarga, — deb yo'lida davom etdi Quyosh bobo.



Arpa-bug'doy osh bo'lur

Abdusodiq Irisov

Uch kishi safarga chiqishibdi. Biri cho'ntaklarini pulga to'ldirib olibdi. Ikkinchisi belbog'iga tilla-kumushlarini tugib jo'nabdi. Uchinchisi bir xalta non-u tolqon, bir ko'za suv ko'tarib yo'lga chiqibdi. Buning xaltasini ko'rib, haligi ikki kishi rosa kulibdi, uni mazax qilibdi:

— Obbo tentak-ey, tilla-tanga olmay, tolqon ko'tarib yuribsanmi-a, og'irlik qiladi-ku, — deyishibdi ular.

— Mayli, — debdi xalta ko'targan kishi va yo'lga ravona bo'lishibdi. Nima bo'-libdi-yu, musofirlar yurib-yurib cho'l-u biyobonga borib qolishibdi. U yerda na odam, na bir giyoh bor ekan.

Puldor va oltini bor kishilarning qorni ochib, nima qilishini bilmay qolibdi. Endi ikkovi tolqoni bor kishiga yalinishga tushishibdi. Biri pul, ikkinchisi oltin berib, yo non, yo tolqonidan sotishini so'rabdi. Tolqoni bor kishi pul-u oltinni qo'liga olib, og'ziga solib ko'ribdi, keyin aftini burushtirib:

— Buni yeb bo'lmaydi-ku, — debdi va pulni ham, oltinni ham uloqtirib tashlabdi.

— Mayli, kelinglar, — debdi u puldor-larga rahmi kelib, — ovqatni baham ko'ramiz.

Puldor bilan oltini bor kishilar o'z qilmishlaridan qattiq xijolat bo'lishibdi. Shunga qaramay darrov o'tirib, non-u tolqondan yejishibdi.

Shunda ikkovi ham:

— Arpa-bug'doy osh ekan, oltin-kumush tosh ekan, — deyishibdi.



Oltin quyosh

Miraziz A'zam

Quyosh chiqdi —
Oltin quyosh,
Oltin quyosh ufqda!
Oltin quyosh chiqqanini,
Kel, aytamiz qo'shiqda!
Turing, qani, o'rningizdan,
Turing, oppoq bolalar.
Oltin quyosh chiqqanini
Qutlamoqda dalalar.
Oltin quyosh
Zarlarini
Qir-adirga sepmoqda.
O't-o'lan-u
Turfa gullar
Quyosh nurin o'pmoqda.

Sen va Siz

(Ertak)

I

Bir vaqtlar Sizjon bilan Senvoy aka-uka bo‘lishgan ekan. Bir kuni Sizjon baxt izlab safarga chiqibdi. Yo‘lda qora dev uchrab qolibdi.

— Assalomu alaykum, dev og‘a! — deb salom beribdi.

Salomga alik olgan dev:

— Oting nima? — deb so‘rabdi.

— Otim Sizjon, — javob beribdi u odob bilan.

Dev Sizjonning xushmuomalasi va shirinzabonligidan erib ketib, unga yo‘l beribdi.

Shunday qilib Sizjon sizlashishni qo‘ymay osmono‘par tog‘ni eritibdi, asov daryoning yuzidan bahuzur yurib o‘tibdi. Oqibatda zavol ko‘rmabdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Baxtlar vodiysiga yetib kelibdi.




II

Men ham akamga o'xshayman, deb Senvoy ham yo'lga chiqibdi. Yo'lda dev yo'liqib ismini so'ragan ekan, Senvoy: «Nima ishing bor», — debdi. Uning sensirashidan devning jahli chiqib yo'lni ko'rsatmabdi. Duch kelgan ajdarho esa uni yutmoqchi bo'libdi. Shunday qilib Senvoy daryoni sensirabdi-yu yo'li to'si-libdi, tog'ni mensimabdi — tog' yo'l bermabdi. Senvoy yo'lda sarson-sargar-don bo'lib, manzilga yetolmabdi...

Maqol:

- Sizlashgan til sevdirar, sensiragan til bezdirar.



Sayyod¹ va durroj²

Bir durroj sayyod domiga³ tushib qoldi va unga yalinib dedi: «Agar meni qo'yib yuborsang, barcha do'stlarimni aldab kelib, tuzog'ingga tushirib beraman». Sayyod: «Yo'q, men seni qo'yib yubor-mayman. Sen o'z joningni qutqarmoq uchun do'stlaringga xiyonat qilmoqchisan. Sofdil do'stlardan ko'ra xiyonat-chining o'Igani afzalroqdir», — dedi.

¹ Sayyod — ovchi.

² Durroj — qirg'iyya o'xshash qush.

³ Dom — tuzoq.



Olma

To'lqin Ilhomov

Bobo nevarasini tog' etagidagi dam olish uyiga olib bordi. Ular aylanib yurib shig'il hosilli, qirmizi mevalari ko'zni o'ynatadigan olma daraxtiga ko'zlari tushdi. Bobo ehtiyotkorlik bilan ikki dona olmani uzib, bittasini nevarasiga uzatdi.

— Shirin ekan... Bobo, bu olmani kim o'tqazgan? — dedi nevara.

— Urug'dan chiqqan bo'lsa kerak, — dedi o'ychanlik bilan bobo.

Nevara kutilmaganda olma shoxlariga tikilib qoldi.

- Xalta olib kelsak bo'larkan.
- Bobo hushyor tortdi.
- Bo'tam, odamni uyaltirdingiz-ku.
- Nega bunday deyapsiz? — hayron bo'ldi nevara.
- Qani, ayting-chi, bu olmani siz o'tqazganmisiz?
- Yo'q.
- Saratonda chanqab qolganda yarim chelak bo'lsa ham suv keltirganmisiz?
- Yo'q.
- Ana, ko'rdingizmi? Daraxtga yordamingiz tegmapti. U qor, yomg'ir suvlari-ga qanoat qilgan. Izg'irinlarga chidagan. Hayotdan umidini uzmagan. Endi hosil qilib, uni barcha mehmonlarga ularsha-yapti.

Nevara shundaymi deganday daraxtga qaradi. Olma boboning gaplarini tasdiq-laganday shoxlarini qimirlatib qo'ydi.

H i s s a:

Halol ish — lazzatli yemish.

Rostlikka mukofot

Farhod Musajonov

Nusrat aka bilan Barchinoy opa mehmonga boradigan bo'lishdi. O'g'illari Yolqin bilan Murodjon yaxshi bola bo'lib o'tirsa muzqaymoq va'da qilishdi. Aka-uka o'ynashdi. Koptok guldonga tegib uni sindirdi. Guldonni dadasi chet el safariga chiqqanda olib kelgandi.

Dadasi bilan oyisi mehmondan kelishlari bilan Yolqin dedi:

— Dada, dadajon, Murodingiz koptok o'ynab, guldonni sindirib qo'ydi.

Murodjon hali kichkina, gapirishni ham bilmas edi.

Dadasi bilan oyisi va'daga ko'ra muzqaymoq olib kelishgandi. Nusrat aka bitta muzqaymoqni olib Yolqinga berdi. Murodjon bo'lsa qo'l cho'zgancha qoldi. Ko'zlari javdirab, jiq yoshga to'ldi. Bu Yolqinning ichini alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. Axiyri chidolmadi:

— Guldonni Murodjon emas, men sindirgandim.



U shunday deb qo‘lidagi muzqaymoq-ni ukasiga tutqazdi.

Dadasi ikkinchi muzqaymoqni Yolqinga uzatdi. Yolqin, axir men gunohkorman, degandek bosh chayqadi.

— Olaver, o‘g‘lim, to‘g‘risini aytganing uchun gunohingdan kechdim, — dedi Nusrat aka.

H i s s a:

To‘g‘ri so‘zlash insonni yaxshilikka eltadi.



Ochiq gap

Nurullo Oston

— Chumolivoy, ish ko‘pmi,
Ozgina dam ol, xo‘pmi?

— Ne foyda gap kovlashdan,
Qoldirma don g‘amlashdan!



Buyuk musavvir

Erkin Malik

Bir musavvir bor ekan. U rasm chizish uchun dala-yu dashtlarga chiqarkan. Shunda: «Meni chizing, meni chizing», deb osmonda qushlar chuldirar ekan. Uloqchalar, toychoqlar atrofida dikir-dikir sakrashar ekan. Bu gal ham shunday bo'libdi. Musavvir ularga jilmayib qarab qo'yibdi-da, bir nimalarni chiza boshlabdi. Uni kuzatib turgan jonivorlar savolga tutishibdi:

— Bog'larda shuncha mevalar pishib yotganda, nimaga bug'doy rasmini chizyapsiz?

— Bu dunyoda nonsiz yashab bo‘lmaydi. Non taomlarning podshosi. Non bug‘doydan tayyorlanadi, — javob beribdi musavvir.

— Nimaga paxta rasmini chizdingiz?

— Paxtasiz ham yashab bo‘lmaydi. U kiyim-kechak degani.

— Nimaga humo qushini chizyapsiz?

Bulbul yoki kabutarnimas?

— Humo — baxt qushi. Humosi bor yurt tinch va badavlat bo‘ladi.

— Quyosh-chi?

— Yurtimiz — quyoshli yurt. Uni bir kun ko‘rmasa hamma sog‘inadi.

— Daryo rasmini nimaga chizdingiz?

— Vatanimizda ikkita katta daryo bor. Biri Sirdaryo, ikkinchisi Amudaryo. Butun O‘zbekistonni suv bilan serob etishadi.

— Tushundik. Oy va yulduzlar-chi?

— Hayot kun va tundan iboratdir. Kunduzi Quyosh yoritsa, kechasi Oy va yulduzlar butun olamni yoritadi.

Musavvir oddiy, ammo buyuk narsalar-dan chiroyli rasm yaratibdi. U O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi ekan.



Ming yashang

Yo'Idosh Sulaymon

O'zbekiston bosh kenti
 Jonajonim Toshkentim —
 Sen, ey mening nuridiydam,
 Kelib go'zal vodiydan —
 Seni ko'rdim yaqindan.
 Yaltillagan chaqinday
 Rom etadi har go'shang,
 Quruvchilar, ming yashang!

Osmono'par qasrlar
Hali necha asrlar
Ko'z-ko'z bo'lar jahonga,
O'xshar shirin ohangga.
Seni qilsa tomosha
Har qanday ko'z qamashar.
Rom etadi har go'shang,
Quruvchilar, ming yashang!

Aql va boylik

(Ertak)

Bir cholning to'rt o'g'li bor ekan. Bir kuni chol: «O'g'illarim, men qarib qoldim, orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Kim aqli va davlatmand bo'lsa, o'zini ko'rsatsin. Shu merosxo'r bo'ladi», — debdi.

Katta o'g'il zumrad ko'zli oltin uzuk taqqan qo'lini ko'rsatibdi. Ikkinchchi o'g'il zarbof choponni kiyib ko'rsatibdi. Uchinchi o'g'il kumush va javohirlar qadalgan kamarini beliga bog'lab ko'rsatibdi.

Chol kenja o'g'liga qarab:

— Nega sen indamaysan? Sen qaysi boyliging bilan maqtanasan? — debdi.

— Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'llim, botir yuragim, aqli boshim bor, — debdi kenja o'g'il.

Chol bor-yo'g'ini kenja o'g'liga meros qilib qoldiribdi va oila boshlig'i etib tayinlabdi.

Turnalar

Ilyos Muslim

Turnalar, hoy turnalar,
Pastlab uchingiz.
Bizning ko'l va daryolar
Bag'rin quchingiz.
Bizlarni xursand qilib
Keldingiz shu choq.
Ko'kimizda tizilib,
Soling arg'imchoq.

Erkin, erkin uchingiz
Osmonni bo'ylab,
Qo'rqlay yerga tushingiz
Sayrashib, kuylab.
Bizlar ko'l-dengizlarni
Etdik xo'p obod.
Siz ham tushib bizlarni
Qiling juda shod.



Maqollar

- Sog' tanda — sog'lom aql.
- Ozodlik — obodlik.
- Yurtim deb, yuzga kirdim.
- Birliksiz kuch bo'lmas.
- Eling senga cho'zsa qo'l,
Unga doim sodiq bo'l.
- Bilimdan ortiq boylik yo'q.
- Bilimliga dunyo yorug',
Bilimsizga — qorong'i.
- Sog'liging — boyliging.
- Gap bilan shoshma,
Ish bilan shosh.
- Dili pokning ishi – pok.
- Til – aql bezagi.
- Yaxshi so'z boldan shirin.
- Davlating – do'sting.
- Aql – Hasan, odob – Husan.

Topishmoqlar

Tunda ko'rib, cho'g' deysan,
Tongda ko'rib, yo'q deysan.



Gul emas-u bog'langan qilib dasta,
Yerni gulga aylantirar birpasda.

O'xshar qovun-tarvuzga,
Sip-silliq kiygan to'ni.
Ichi olov, zar rangda,
Pishirib yeysan uni.



Toyim bor, kishnamaydi,
Yozning kuni ishlamaydi.

Kichkina mitti,
Qo'limga olsam,
Qovurg'asi sinib ketdi.



Qorday oppoq,
Yungday yumshoq.

Tez aytish

- Saidning sa'vasi
Sabzining sarasini,
Mahmudning maynasi
Mayizning maydasini yeysi.
- Olim oldidagi oltita olmani oldi.
- Qodir qaldirg'ochning qayrilgan qanotiga qaradi.
- Hashar, hashardan shahar yashnar.
- Qo'sh qo'lqop,
Qo'shovi ham
Bo'sh qo'lqop.
- Dildora — Dinoraning dugonasi,
Dinora — Dilnozaning dugonasi.
- Oydin oydinda oyisidan oldin bordi.
- Dilshodning dili shod,
Dili shodning o'zi shod.

MUNDARIJA

O‘zbekiston — Vatanim mening

Vatan — bu... (<i>Po‘lat Mo‘min</i>)	6
Buyuklar Vatani	7
O‘zbekiston askarlari (<i>Odil Abdurahmon</i>)	8
Ota rozi — Vatan rozi (<i>Eson Rahimov</i>)	9
Suv — shifo (<i>Erkin Malik</i>)	10
Qish (<i>Tursunboy Adashboyev</i>)	11
Oy allasi (<i>Odil Abdurahmon</i>)	13
Bu juda soz, juda soz (<i>Po‘lat Mo‘min</i>)	14
<i>Bo‘lim yuzasidan takrorlash</i>	16

Biz — buyuklar avlodi

Amir Temur	18
Amir Temur o‘gitlari	19
Rivoyat	20
G‘azal mulkining sultonii	21
Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlari	21
Alisherning yoshligi (<i>Oybek</i>)	23
Non isi (<i>Rivoyat</i>)	25
Abu Ali ibn Sino	26
Kitobga mehr (<i>Mirkarim Osim</i>)	27
Buyuk munajjim	28
Ulug‘bek bobom (<i>Po‘lat Mo‘min</i>)	29
Shoh va shoir	30
Ona sabog‘i (<i>G‘iyos Komilov</i>)	31
<i>Bo‘lim yuzasidan takrorlash</i>	33

Ko‘klam — yashardi olam

Bahor (<i>Tursunboy Adashboev</i>)	35
Lola (<i>Hamid Olimjon</i>)	36
Ona allasi (<i>Rivoyat</i>)	37
Mehribon oyijonim (<i>Po‘lat Mo‘min</i>)	38
Bekinmachoq (<i>Anvar Obidjon</i>)	40
Qushcha (<i>Abdulla Oripov</i>)	41
Svetofor (<i>Safo Ochil</i>)	42
Navro‘z bayrami	44
Navro‘z (<i>Rauf Tolib</i>)	46
<i>Bo‘lim yuzasidan takrorlash</i>	47

Ilm — aql chirog‘i

Maktab — oftob qo‘srig‘i (<i>Quddus Muhammadiy</i>)	49
Kitobni asrang	50
Kitob, məning do‘stimsan (<i>Zafar Diyor</i>)	51
O‘quv va bilim haqida (<i>Yusuf Xos Hojib</i>)	52
Kompyuter	54
Yaxshi niyat (<i>Anvar Obidjon</i>)	55
Toshbaqa va quyon (<i>G‘ulom Muhammad Vosif</i>)	56
<i>Bo‘lim yuzasidan takrorlash</i>	58

Xalq o‘giti — baxt kaliti

Sher va sichqon (<i>Ertak</i>)	60
Maymun va duradgor (<i>Ertak</i>).	62
Rostgo‘y bola (<i>Ertak</i>)	64
Topishmoqlar	66

Laylak keldi — yoz bo'ldi (Qo'shiq).	68
Latifalar	69
<i>Bo'lim yuzasidan takrorlash</i>	70

Odob — insonga husn

Oftob va odob (Po'lat Mo'min)	71
Odob (Rivoyat)	72
Kapalak (Mirmuhsin)	73
Maslahat (Iskandar Rahmon)	75
Ochko'z sichqon (Ertak)	77
Taqsim (Abdulla Avloniy)	78
Tinchlik nima? (Umida Abduazimova)	80
Chiroyli salom (Safar Barnoyev).	82
<i>Bo'lim yuzasidan takrorlash</i>	84

Mehnatning tagi — rohat

Aqli bog'bon (Ertak).	85
Soqi bilan onasi (Abdulla Avloniy).	87
Yer nima der? (Po'lat Mo'min)	89
Tugma (Shuhrat)	90
Maqtanchoq g'oz (Abdulla Avloniy)	91
Hakka va uning bolalari (Ertak).	92
Ona yer (Ibrohim Rahim)	94
Yurak (Rivoyat)	96
<i>Bo'lim yuzasidan takrorlash</i>	98

Mustaqil o‘qish uchun

Boychechak (<i>Muhtarama</i>)	100
Ota-onas (<i>Tolib Yo‘Idosh</i>)	101
Ibn Sino haqida rivoyat	102
Chinor va maysalar (<i>Ollayor Begaliyev</i>)	103
Arpa-bug‘doy osh bo‘lur (<i>Abdusodiq Irisov</i>)	105
Oltin quyosh (<i>Miraziz A’zam</i>)	107
Sen va Siz (<i>Ertak</i>)	108
Sayyod va durroj	110
Olma (<i>To‘lqin Ilhomov</i>)	111
Rostlikka mukofot (<i>Farhod Musajonov</i>)	113
Ochiq gap.	114
Buyuk musawir (<i>Erkin Malik</i>)	115
Ming yashang (<i>Yo‘Idosh Sulaymon</i>)	117
Aql va boylik (<i>Ertak</i>).	118
Turnalar (<i>Illyos Muslim</i>)	119
Maqollar	121
Topishmoqlar	122
Tez aytish	123

Tal'at G'AFFOROVA,
Ergash SHODMONOV ,
Gulbodom ESHTURDIYEVA

O'QISH KITOBI
Umumiy o'rta ta'lif maktablarining
1-sinfi uchun darslik

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahriri
Toshkent — 2009

Rassomlar: *Rustam Zufarov,*
Laylo Basharova, Gennadiy Jirnov, Tohir To'xtayev

Muharrir *Zebiniso Mirzahakimova*
Badiiy muharrir *Tolib Qanoatov*
Texnik muharrir *Diana Gabdraxmanova*
Musahhihlar: *Ma'mura Ziyamuhamedova, Sharofat Xurramova*
Kompyuterda sahifalovchi Lida Soy

Bosishga ruxsat etildi: 10.04.2009. Bichimi 70x90^{1/16}.
«Pragmatic» garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 9,36.
Nashriyot-hisob tobog'i 9,0. Adadi 411091 nusxa.
Buyurtma № 5033.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.

51/4=

Sotuvga chiqarish taqiqlanadi

1



ISBN 978-9943-00-031-5

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-00-031-5.

9 789943 000315